

ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARIDA FALSAFIY QARASHLAR

Qudratova O'g'iloy Tohir qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17522966>

Annatatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakili Ulug'bek Hamdam hikoyalarining mazmun-mohiyati va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarlarda inson ruhiyati, hayot falsafasi va jamiyatdagi ma'naviy muammolar tasviri yoritib beriladi.

Muallifning hikoyalarida falsafiy teranlik, obrazlar tizimidagi ramziylik va ichki monologlarga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida yozuvchining o'ziga xos uslubi va adabiyotdagi o'rni aniqlanadi. Maqola Ulug'bek Hamdam ijodini yangicha talqin etish va uni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: diniy qarashlar, ruhiyat, obraz, falsafiy mazmun, „Ichindagi ichindadir”.

Аннотация. В данной статье анализируются содержание и художественные особенности рассказов одного из крупнейших представителей современной узбекской литературы – Улугбека Хамдама. В его произведениях отражаются духовный мир человека, философия жизни и нравственные проблемы общества. Особое внимание уделяется философской глубине, символизму образов и внутренним монологам автора. В результате исследования определяется индивидуальный стиль писателя и его место в литературе. Статья способствует новому осмыслению творчества Улугбека Хамдама и более глубокому его пониманию.

Ключевые слова: религиозные взгляды, психология, образ, философское содержание, «Внутри – внутри».

Annotation. This article analyzes the themes and artistic features of the stories written by Ulugbek Hamdam, one of the prominent figures of modern Uzbek literature. His works depict the human spirit, the philosophy of life, and the moral issues of society. Special attention is paid to the philosophical depth, symbolic imagery, and internal monologues in the author's narratives.

The study identifies the writer's unique style and his role in literature. The article contributes to a new interpretation and deeper understanding of Ulugbek Hamdam's creative works.

Keywords: religious views, psychology, image, philosophical content, (Inside Within).

Ulug'bek Hamdam 1968-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati Marhamat tumani Yuqori Rovot mahallasida duradgor oilasida tug'ilgan. 1988-yilda Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kirib, uni 1993-yilda tamomladi. 1992-yilda, davlat ta'lim taqsimotiga ko'ra, o'qishni davom ettirish uchun u Turkiyaning Konya shahriga jo'natilgan¹. Yozuvchining Turkiyaga jo'natilishi va u yerda ilm o'rganib, Jaloliddin Rumiyning „Ichindagi ichindadir” asarining tarjima qilinishi o'z asarlarida diniy falsafiy qarashlarni kuchayishiga sabab bo'ldi. Uning asarlarida inson ruhiyati, uning jamiyat bilan aloqasi, ma'naviy-ma'rifiy masalalar falsafiy tafakkur shaklida ochiladi. Masalan, „Haykallar oroli”, „Safar”, „Qaytish”, „So'z”, „Iymon”, „Tosh” kabi hikoyalarida oddiy voqea-ko'rinish

¹ Истиклол - бахтим, саодатим...: дарслик / Х. Каримов; ЎЗР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Низомий номидаги Тошк. давлат педагогика ун-ти. — Т.: УапБ1 пазЪг, 2010. — 364 б.

ostida chuqur falsafiy mazmun yashirin. Tadqiqotlarda kitobxonlar Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida “mifopoetik tafakkur”, “real va unreal chegarasi”, “symbolik obrazlar orqali ma‘noni anglash” kabi yo‘nalishlarni ko‘rganlar.

Hikoyalarida vaqt, mavjudlik va o‘zlik muammolari aks etadi. Ulug‘bek Hamdamning “Qaytish” hikoyasida bosh qahramon “ishdan ketdi” degan soddaroq voqea orqali qandaydir o‘zlikning izini izlaydi. “Bugun u ishdan ketdi ... Ishlab turib o‘lib qolsa, uning qayon borishi ma‘lum: chin dunyoga... Lekin o‘lmasdan burun ishdan ketsa-chi? Keyin nima bo‘ladi²”. Bu yerda yozuvchi “ishdan ketish”ni oddiy bironing kasbdan chetlanishi sifatida emas, balki insonning o‘z mavjudligini, hayotdagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqishi sifatida ochadi. “Qayoqqa?” degan savol falsafiy xususiyatga ega: inson qayerdan keldi, qaysi yo‘lga tushdi, qayerga boradi degan masala. Inson ba‘zan o‘z olamiga shu qadar sho‘ng‘ib ketadiki, atrofidagi narsalarga e‘tibor bermaydi, ularni keraksiz va vaqt ajratish uchun noto‘g‘ri deb hisoblaydi, lekin inson yashar ekan tabiatdan zavq olishga, hayotning qanday muommolari bo‘lmasin uning baxtli lahzalarini his qilishga harakat qilishi lozim. Aslida yolg‘izlik bu ishdan, yo oilasidan ajralish emas, umidlarini yo‘qotishidir.

Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida bu muammo ko‘pincha oddiy vaziyat orqali ifodalanadi, biroq uning ostida “men kimman?”, “men nimaga yashayman?”, “hayot nima?” degan falsafiy savollar yotadi. Masalan, “So‘z” hikoyasida oilaviy, ruhiy holatlar orqali ayol ruhiyati tahlil qilinadi. Bu hikoyaning “So‘z” deb nomlanishiga sabab, birgina “bema‘ni” so‘zi orqali butun umri, butun hayoti sarobga aylangan erkakning holati tasvirlanishidir. Bu hikoya orqali ayolning noshukrligi, erining mehribonchiligini qadrlamasligini payqash mumkin³.

Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida jamiyat – individual ruhiyat bilan bevosita bog‘liq. “Safar” hikoyasida “Bir orolning ikki tomonida ikkita osmon va ikki xil olam bor edi go‘yo”.

Bu tasvir orqali yozuvchi “ichki” va “tashqi” olamni birga olib keladi: yurakdagi qo‘rquv-umid, jamiyatdagi holat bilan birga siljiydi. Hikoyadagi qayiq, tuman, suv kabi obrazlar ramziy bo‘lib, insonning jamiyatdagi o‘rni, cheklanishi, umiddan voz kechishi kabi jihatlarni aks ettiradi. Bu yerda falsafiy qarash – jamiyat tashvishlari shaxsning ichki dunyosiga qanday ta‘sir qilishi, shaxsning jamiyat oldidagi mas‘uliyati nimada degan savollarni ko‘taradi. Tadqiqotlarda esa yozuvchining zamonaviylik bilan an‘anaviylik, individualizm bilan kollektivlik o‘rtasidagi ziddiyatni aks ettirishi ta‘kidlangan. Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida realistik voqelik bilan ramziy, metafora usullari uyg‘unlashgan. Masalan, “Tosh” hikoyasida baliqchi, bozor, ayol kabi obrazlar insonga, jamiyatga doir mazmunlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Dissertatsiyalardan biri yozuvchi hikoyalarida “mifopoetik tafakkur va ramzlar sintezi”ni ko‘zga tashlaganini ta‘kidlaydi. Bu – ya‘ni hikoyada soddaroq voqea orqali keltirilgan tasvir, lekin uni o‘qiganda chuqurroq ma‘nolar yuzaga chiqadi: insonning nafsga ergashishi, zulmga bo‘ysunishi, ozodlikka intilishi, ichki kurashlari va ijtimoiy sharoit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat. Masalan, hikoyadagi baliq – tilsiz bir jonzo, ayol – nafs ramzi sifatida ko‘rsatiladi.

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Ulug%CA%BBbek_Hamdam

³ G‘ayratjonova Ezoza. Ulug‘bek Hamdamning “Soz” hikoyasiga bir nazar. Talim innavatsiyasi va integratsiyasi. 2024.

Xulosa qilib aytganda, Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida falsafiy qarashlar – oddiy voqealarning ostida yotgan chuqur savollar shaklida keladi: “Inson kim?”, “hayot nima?”, “jamiyat bilan shaxs o‘rtasida qanday munosabat bor?”, “vaqt va hozir qanday ahamiyatga ega?” va “ramzlar nima uchun paydo bo‘ladi?”. U voqeani faqat tashqi tasvir sifatida berib qolmay, uni ramziy qatlamda ochadi, metafora va mifo – ramz orqali o‘quvchini mulohazaga chorlaydi.

Hikoyalarining badiiy-uslubiy jihati ham zamonaviy talqinni o‘z ichiga oladi – maksimal realist ko‘rinishdan qochib, ruhiy jihatlar va muloqotlarni markazga oladi. Natijada Ulug‘bek Hamdamning hikoyalari nafaqat o‘qish zavqini, balki o‘ylash imkoniyatini beruvchi adabiy asarlardir. U adabiyot orqali falsafiy tafakkurga yo‘l ochadi – ya‘ni adabiyot faqat voqea emas, balki hayotiy savollar maydoni ekanini isbotlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdug‘aniyev, S. “Ulug‘bek Hamdamning “So‘z” hikoyasida davr ruhiyati.” Filologiya ufqlari jurnali, 4(4) (2024)
2. Истиклол - бахтим, саодатим...: дарслик / Ҳ. Каримов; ЎзР олий
3. ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Низомий номидаги Тошк. давлат
4. педагогика ун-ти. – Т.: УапБ1 пазБг, 2010. – 364 б.
5. To‘raqulova, S., Jo‘rayev, Sh. “Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida hayot tasviri.” Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida, Vol.1 No.1 (2023)
6. Uralova, D. M. “Ulug‘bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o‘rni.” Ijtimoiy gumanitar fanlar – adabiyotshunoslik, 29(3) (2023)
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ulug%CA%BBbek_Hamdam